OROL DENGIZI HUDUDIDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Usmanov Dilmurodjon Dolimovich
Andijon davlat pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya va geografiya kafedrasi katta o`qituvchisi,
Sobirov Islomjon Ilhomjon o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya va geografiya kafedrasi o`qituvchisi,
Yo‘lchiyeva Nodiraxon O‘ktamjon qizi,
Abdurahmonova Nazokat Oybekjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Kimyo yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Orolbo‘yi hududida yuzaga kelgan ekologik muammolar, xususan, Orol dengizining qurishi, tuproq sho‘rlanishi, chang va tuz bo‘ronlari hamda ularning aholi salomatligi va iqtisodiyotiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, hududdagi ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va muammoning yechimlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Orol dengizi, Orolbo‘yi, ekologik muammo, sho‘rlanish, ekologiya, chang bo‘ronlari, suv tanqisligi, atrof-muhit, iqlim o‘zgarishi, ekologik yechimlar.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются экологические проблемы, возникшие в регионе Аральского моря, в частности, пересыхание Аральского моря, засоление почвы, пыльные и соленые бури, а также их влияние на здоровье и экономику населения. Также обсуждаются меры, принимаемые для улучшения экологической ситуации в регионе, и пути решения проблем.*

Ключевые слова: *Аральское море, Аральское море, экологическая проблема, засоление, экология, пыльные бури, нехватка воды, окружающая среда, изменение климата, экологические решения.*

Abstract: *This article discusses the environmental problems that have arisen in the Aral Sea region, in particular, the drying up of the Aral Sea, soil salinization, dust and salt storms, and their impact on the health and economy of the population. It also discusses the measures being taken to improve the environmental situation in the region and solutions to the problem.*

Keywords: *Aral Sea, Aral Sea, environmental problem, salinization, ecology, dust storms, water shortage, environment, climate change, environmental solutions.*

Kirish

Orol dengizi bir vaqtlar nafaqat Markaziy Osiyoning, balki butun dunyoning eng yirik ichki suv havzalaridan biri hisoblangan. U O‘zbekiston va Qozog‘iston hududida joylashgan bo‘lib, tabiiy boyliklari, baliqchilik sanoati, qulay iqlimi hamda iqtisodiy ahamiyati bilan mashhur edi. XX asrning o‘rtalariga qadar Orol dengizi atrofidagi hududlar yashash uchun qulay maskanlardan biri bo‘lib, minglab insonlarning hayoti dengiz bilan chambarchas bog‘liq edi. Ammo insonning tabiatga noto‘g‘ri munosabati

natijasida Orol dengizi asta-sekin quriy boshladi va bugungi kunda dunyodagi eng katta ekologik muammolardan biriga aylandi. Orol dengizining fojiasi nafaqat O‘zbekiston yoki Markaziy Osiyo, balki butun insoniyat uchun ogohlantiruvchi misol bo‘lib xizmat qiladi. Chunki bu hodisa tabiat boyliklaridan noo‘rin foydalanish qanday daxshatli oqibatlarga oli kelishini yaqqol ko‘rsatdi.

Asosiy qism

Orol dengizi Amudaryo va Sirdaryo daryolari hisobiga to‘yinib kelgan. Dengizning umumiy maydoni 1960-yillarga qadar taxminan 68 ming kvadrat kilometrni tashkil etgan. Shu sababli u dunyodagi to‘rtinchi yirik ko‘l hisoblangan. Dengizning uzunligi qariyb 430 kilometr, eni esa 280 kilometr atrofida bo‘lgan. Orol dengizida baliqning ko‘plab turlari yashagan va bu hududda baliqchilik sanoati juda rivojlangan edi. Mo‘ynoq shahri eng yirik portlardan biri hisoblangan. Dengiz orqali yuk tashish ishlari ham yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, minglab insonlar baliqchilik va dengiz bilan bog‘liq sohalarda mehnat qilgan. Bundan tashqari, Orol dengizi mintaqa iqlimini mo‘tadillashtirib turardi. Yoz fasli unchalik issiq bo‘lmas, qish esa nisbatan yumshoq o‘tardi.

1970-yillarga kelib Orol dengizi sathi sezilarli ravishda pasaya boshladi. 1980-yillarda esa dengiz qirg‘oqlari o‘nlab kilometrga chekinib ketdi. 1990-yillarga kelib Orol dengizi bir necha alohida qismlarga bo‘linib qoldi. Bugungi kunga kelib dengizning qariyb 90 foizdan ortiq qismi qurib ketgan. Qurigan hudud o‘rnida “Orolqum” deb ataluvchi yangi sho‘r cho‘l paydo bo‘ldi. Ushbu cho‘l millionlab gektar maydonni egallagan. Orol dengizining qurishi butun mintaqa ekologiyasiga juda katta zarar yetkazdi. Dengiz tubida yig‘ilib qolgan tuz va kimyoviy moddalar shamol yordamida havoga ko‘tarilib, minglab

kilometr masofalarga tarqalmoqda. Olimlarning ta’kidlashicha, Orol tubidan ko‘tarilgan zararli chang va tuz boshqa davlatlar hududlariga ham yetib bormoqda. Natijada havoning ifloslanishi kuchaydi, tuproq sho‘rlanishi ortdi, qishloq xo‘jaligi hosildorligi kamaydi hamda o‘simlik va hayvonot dunyosiga katta zarar yetdi.Iqlim ham keskin o‘zgardi. Avvallari dengiz tufayli mo‘tadil bo‘lgan hududda hozir yoz juda issiq, qish esa qattiq sovuq bo‘lib qolgan. Bu esa aholi turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Orol fojiasi millionlab insonlarning hayotiga ta’sir qildi. Bir paytlar rivojlangan baliqchilik sanoati deyarli butunlay yo‘qoldi. Mo‘ynoq kabi port shaharlari dengizdan o‘nlab kilometr uzoqlikda qolib ketdi. Natijada minglab odamlar ishsiz qoldi. Hududda ichimlik suvi muammosi ham kuchaydi. Aholi orasida nafas yo‘llari kasalliklari, yurak-qon tomir kasalliklari, allergik xastaliklar hamda onalar va bolalar salomatligi bilan bog‘liq muammolar ko‘paydi. Tibbiyot mutaxassislari buning asosiy sabablaridan biri sifatida havodagi tuz va zararli moddalar miqdorining oshganini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Orolbo‘yi hududini tiklash va aholining yashash sharoitini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda Orolning qurigan tubida millionlab gektar maydonga saksovul va boshqa cho‘l o‘simliklari ekildi. Bu ishlarning asosiy maqsadi qum va tuz bo‘ronlarini kamaytirishdir. Saksovul ildizlari qumni mustahkamlab, chang ko‘tarilishining oldini oladi. Bundan tashqari, Orolbo‘yi hududida yangi ichimlik suvi tizimlari qurilmoqda, maktab va shifoxonalar ta’mirlanmoqda, yangi ish o‘rinlari yaratilmoqda hamda ekologik monitoring ishlari olib borilmoqda. “Yashil makon” loyihasi doirasida keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish ishlari davom ettirilmoqda. Shuningdek, hududda xalqaro ekologik markazlar tashkil etilib, cho‘llanishga qarshi

kurashish, suvni tejash va ekologik muammolarni ilmiy asosda hal qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham Orol muammosiga katta e’tibor qaratmoqda. 2018-yilda BMT huzurida Orolbo‘yi mintaqasi uchun “Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘psheriklik Trast fondi” tashkil etildi. Ushbu fond orqali ekologik va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish yo‘lga qo‘yildi. 2021-yil 18-may kuni esa BMT Bosh Assambleyasi Orolbo‘yi hududini “Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi” deb e’lon qilish to‘g‘risida maxsus rezolyutsiyani qabul qildi. Bu qaror Orol muammosining xalqaro darajada tan olinganini va unga qarshi kurashishda jahon hamjamiyati hamkorlik qilayotganini ko‘rsatadi. Orol dengizi fojiasi insoniyat uchun katta saboq bo‘ldi. Tabiiy resurslardan noto‘g‘ri foydalanish nafaqat tabiatga, balki inson salomatligi va iqtisodiyotga ham jiddiy zarar yetkazishini dunyo Orol misolida ko‘rdi. Shu sababli suv resurslarini tejash, ekologiyani asrash, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish va yashil texnologiyalarni rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Orol dengizi bir vaqtlar Markaziy Osiyoning bebaho tabiiy boyligi bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda u insonning tabiatga noto‘g‘ri munosabati oqibatida yuzaga kelgan ekologik fojianing timsoliga aylandi. Dengizning qurishi millionlab insonlarning hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi va butun dunyoni ekologik muammolar haqida jiddiy o‘ylashga majbur qildi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston hukumati, xalqaro tashkilotlar va BMT tomonidan Orolbo‘yi hududini tiklash uchun muhim ishlar amalga

oshirilmoqda. Kelajak avlod uchun tabiatni asrash va suv resurslaridan oqilona foydalanish har bir insonning muhim burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi materiallari.
2. Orol dengizi muammolari bo‘yicha ilmiy maqolalar va tahliliy ma’lumotlar to‘plami.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Orolbo‘yi hududini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti rasmiy hisobotlari va rezolyutsiyalari.
5. Orolbo‘yi ekologik holati bo‘yicha ilmiy-tadqiqot markazlari ma’lumotlari.
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.